

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13763582>

MOYLI KUNGABOQARNING UNUVCHANLIGI, O‘SISHI-RIVOJLANISHI

U.Norqulov

Toshkent davlat agrar universiteti “Dehqonchilik va melioratsiya” kafedrası
professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

J.Eshonqulov

Toshkent davlat agrar universiteti “Dehqonchilik va melioratsiya” kafedrası
professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent

O.Gulmetov

Toshkent davlat agrar universiteti, Agrobiologiya fakulteti magistranti

M.Valiyeva

Toshkent davlat agrar universiteti, Agrobiologiya fakulteti magistranti

S.Xudoykulov

Toshkent davlat agrar universiteti Agrobiologiya fakulteti talabasi
1992.jamoliddin@mail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada suv ombori toshqini natijasida loyqa cho‘kindilari to‘plangan tuproqlarda moyli kungaboqarning unuvchanligi, o‘sishi va rivojlanishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Suv ombor, loyqa cho‘kindi, moyli kungaboqar, unuvchanlik, o‘sish, rivojlanish.*

***Annotation.** This article provides information on the uniqueness, growth and development of oil sunflower on soils where turbid sediments have accumulated as a result of reservoir flooding.*

***Key words:** Reservoir, muddy sediment, oil sunflower, permeability, growth, development.*

Kirish: Qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarni suv bilan ta'minlashda suv omborlarining ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Dunyoda dehqonchilik maqsadida barcha qilingan to'g'onlar soni, umumiy to'g'onlar soniga nisbatan yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. "Sug'orma dehqonchilik keng tarqalgan Xitoy, Hindiston, AQSh va boshqa mamlakatlarda sug'orish suvining asosiy qismi suv omborlari yordamida ta'minlanadi. Lekin, ayrim tabiiy va antropogen omillar ta'sirida to'g'onlarda o'pirlash, yorilish, yuvilish holatlari sodir bo'ladi. Natijada suv toshqini oqibatida insonlar hayoti, sog'lig'i, uy-joylari va daromadlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari. Odatda kungaboqar o'simligi tuproq harorati 15-16 °C da urug'i 9-10 kunda unib chiqdi. Kungaboqar o'simligi uchun optimal haroratlar 25-27 °C kungaboqar silos uchun ekilganda bir gektar maydonda 100 mingdan ortiq ko'chat to'g'ri keldi. Lekin kungaboqardan pista olish maqsadida esa 1-metr kvadrat maydonga 3-4 ta ko'chat to'g'ri keladi hamda belgilangan ko'chat qalinligi 50-55 ming donadan iborat bo'ladi. Sardoba suv ombori toshqinidan keyingi loyqa cho'kindi qalinligi turilicha bo'lgan tajriba maydonlarida o'simlikning ko'chat qalinligi xam turilicha bo'lganligi kuzatildi.

1- jadval

**Kungaboqar navlarining o'suv davri davomiyligi, kun
(sardoba suv ombori toshqinidan keyingi tuproqlar sharoitida).**

Loyqa cho'kindi qalinligi, sm	Unib chiqqandan shonalash gacha	Shonalashdan gullash gacha	Gullashdan pishgungacha	Vegetatsiya davri davomiyligi
0-15	16	40	52	108
15-30	17	42	51	110
>30	19	43	51	113

Suv ombori toshqinidan keyingi tajriba olib borilgan, loyqa choʻkindi qalinligi 0-15 sm, 15-30 sm va 30 sm hamda undan yuqori choʻkindi qalinlikda boʻlgan sharoitda kungaboqar oʻsimligi unib chiqishidan, shonalash davrigacha, shonalash davridan gullash davrigacha, gullash, savatchalar hosil qilishidan tortib pishish fazalarigacha boʻlgan vaqtlari belgilab olingan bu maʼlumotlar, Oqoltin tumanidagi “Bekzafarlik chorvadorlar” fermer xoʻjaligida loyqa choʻkindilar qalinligi 0-15 sm atrofida boʻlib, unib chiqqanidan shonalash davrigacha 16 kunni tashkil qildi. Shonalash davridan to gullash fazasigacha 40 kun boʻldi, gullashdan keyingi bosqichlar savatchalar hosil boʻlishi va pishish fazasida 52 kundan iborat boʻlgan boʻlsa, umumiy vegetatsiya davri 108 kundan iborat boʻlganligi aniqlandi.

Tajriba olib borilgan Sardoba tumanida suv omboridan 12-15 km uzoqlikda joylashgan tajriba 15-30 sm loyqa choʻkindilar boʻyicha tajriba maydonida kungaboqar oʻsimligi ekib, parvarishlash oʻtkazilganda unib chiqqanidan shonalash davrigacha 17 kunni tashkil qildi. Shonalash davridan to gullash fazasigacha 42 kun boʻldi, gullashdan keyingi bosqichlar savatchalar hosil boʻlishi va pishish fazasida 51 kundan iborat boʻlgan boʻlsa, umumiy vegetatsiya davri 110 kundan iborat boʻlganligi aniqlandi. Suv omboridan 1,5-2 km uzoqlikda joylashgan tadqiqotlar olib borilgan “Jasoratli Oybek” fermer xoʻjaligi tajriba maydonida kungaboqar oʻsimligingini urugʻlarini unib chiqishidan to pishish davrigacha oʻsimlik ustidagi rivojlanish fazalari bosqichlari unib chiqqanidan shonalash davrigacha 19 kunni tashkil qildi. Shonalash davridan to gullash fazasigacha 43 kun boʻldi, gullashdan keyingi bosqichlar savatchalar hosil boʻlishi va pishish fazasida 51 kundan iborat boʻlgan boʻlsa, umumiy vegetatsiya davri 113 kundan iborat boʻlganligi olib borilgan tajribalarda asoslandi. Tadqiqotlarda kungaboqarni delyankalarda oʻsishi va rivojlanishi boʻyicha fenologik kuzatuvlar biomterik oʻlchovlar olib borildi. Kungaboqar oʻsimligining oʻsishi va rivojlanish davrida uning parvarishi va fenologiyasi bilan bogʻliq tadbirlar ketma-ketlikda oʻtkazildi. Begona oʻtlarga qarshi kungaboqar vegetatsiyasi davrida qator oralariga ishlov berish agrotadibirlari amalga oshirildi.

Tadiqotlarda ekilgan tajriba variantlarida kungaboqar urug‘i 10-12 kuni to‘liq ko‘karib chiqdi va nihoyat 33-42 kunilarida savatchalar hosil bo‘lishi boshlandi. O‘simlikda gullash fazasining dastlabki davri (25%) ekilgandan 65 kunda va jadal gullash 70 kunda (75%) qayd etildi. Kungaboqar savtchalarining dastlabki pishib yetilishi avgust oyining 2-dekadasidan boshlab kuzatildi. Bu unib chiqqadan 80-90 kuniga to‘g‘ri keldi. Savatcha hosil qilishning dastlabki kunlari (25%) o‘simlik unib chiqqandan keyingi 32 kunda va jadal rivojlanishi 40-42 kunda kuzatildi. Kungaboqar ekilgandan keyin 68 kunda 25 % gullash fazasiga kirgan bo‘lsa, 74-76 kunlari jadal gullash fazaga kirishi kuzatildi. Suv ombori toshqinidan keyin tuproqning ustki unumdor qatlamini loy bosib qolishi va yuvilishi hisobiga kungaboqarni pishib yetilishi 10-13 kunga tezlashdi. Kungaboqarning o‘sishi va rivojlanishi ustidan fenologik kuzatuvlar (o‘simlikning bo‘yi balandligi va barglar sonini) va biometrik o‘lchovlar olib borildi. Kungaboqar o‘simligida olib borilgan biometrik kuzatuvlar natijasida loyqa cho‘kindi qalinligi bo‘yicha 0-15 sm qalinlikda 1-iyun sanasida bo‘y balandligi 20,6 sm, barglar soni esa 5,5 donaga teng bo‘ldi, ushbu sana bo‘yicha tuproqning ustki loyqa cho‘kindi qalinligi 15-30 sm bo‘lgan sharoitda ushbu keltirib o‘tilgan sanaga mos ravishda 23,5 sm, bargalar soni 6 donani tashkil qildi. Tuproqning loyqa cho‘kindi qalinligi 30 sm va undan yuqori bo‘lgan sharoitda 24,7 sm barglar soni esa 6,5 donani tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES).

1. Norqulov U, Shamsiyev A, Eshonqulov J. Sardoba suv ombori toshqinidan keyingi tuproq tarkibidagi oziqa moddalarning o‘zgarishi// O‘zbekiston zamini//Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal–Toshkent №2-2023–B.71-74
2. Norkulov U., Izbazarov B., Tukhtashev B., & Eshonkulov J. (2022). Effects of Sardoba Reservoir Flood on Irrigated Land. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(2), 40-42.
3. Norkulov U., Tukhtashev B., & Eshonkulov J. (2022). Change of Mechanical Composition of Soils after Flood of Sardoba Water Reservoir. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(2), 36-39.
4. Atabayeva X, Yuldasheva Z. “Moyli ekinlar biologiyasining ilmiy asoslari va yetishtirishda innovatsion texnologiyalar” “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. 2019–Toshkent, –B. 21-42.